УДК 81`42

METAFORANING PSIXOLOGIK KONTEKSTDAGI O‘RNI (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani asosida)

D.G‘.Mamadaliyeva

Maqolada psixologik kontekst, uning ko‘rinishlari haqida so‘z yuritiladi. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari, tilning badiiy matn orqali yuzaga chiqadigan estetik vazifasi ko‘rsatilgan. Badiiy matndagi ruhiy vaziyatlar va ularda metaforalarning o‘rni masalasi tahlil qilingan. Metaforalarning badiiy matndagi vazifalari, ahamiyati yoritilgan. Ularning badiiy nutq individualligini oshirishdagi ro‘liga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, metaforalarning ruhiy holat ifodachisi sifatidagi imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, metafora, psixologik kontekst, ekspressiv metaforalar, noekspressiv metaforalar, monolog, dialog, muallif nutqi, personaj nutqi*.

В статье говорится о психологическом контексте и его проявлениях. Показаны специфические черты художественного текста, раскрываемая через художественный текст эстетическая функция языка. Анализируются ментальные ситуации в художественном тексте и роль в нем метафор. Выделены функции и значение метафор в художественном тексте. Обращается внимание на их роль в повышении индивидуальности художественной речи. Также раскрывается потенциал метафор как выражения психического состояния. Высказывается мнение о роли метафор, используемых в монологической речи.

Ключевые слова: *художественный текст, метафора, психологический контекст, экспрессивные метафоры, неэкспрессивные метафоры, монолог, диалог, авторская речь, речь персонажа*.

Ma’lumki, “Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi” [1. Б. 35]. Badiiy matn orqali muallif muayyan maqsadni ko‘zda tutadi va shu maqsad tomon voqealar rivojlantiriladi. Badiiy matn boshqa matn turlaridan tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladigan maydon ekani bilan farq qiladi. Shuning uchun yozuvchilar asar yozar ekan, tilning butun imkoniyatini ko‘rsatishga astoydil harakat qiladilar. Shu ma’noda, tilning estetik vazifasi badiiy nutqda asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Zero, “Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta’sir quvvatini namoyon etadi” [2. Б. 48].

M.Yo‘ldashev badiiy matnning o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib shunday yozadi: “Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xiyonat olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurlarini shakllantirish, voqea-hodisaga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarini o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi [3. Б. 99]. Binobarin, insonni inson qilib turadigan jihatlardan biri uning his-tuyg‘ularga egaligidir. Bu jihatlar har bir insonni individual o‘rganish va tushunishni taqozo etadi. Badiiy asar muallifi shu tomonlarni e’tiborga olgan holda har bir qahramon va personajga yondashadi.

Sh.Alponova “O‘zbek tilida ruhiy holatning aks etishi” nomli monografiyasida shunday yozadi: “Inson psixologiyasi va ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba’zan o‘zimizni ham tushunmay qolamiz. Inson nafaqat bir-birining fikrlarini, ba’zan o‘zining qarashlarini ham inkor qilib yashaydi. O‘zini o‘zi rad etadi, o‘z hukmiga o‘zi qarshi chiqadi. Bunday paytda ruhiyat, kayfiyat alohida hukmronlik rolini bajaradi. Insonning ichki dunyosi, ma’naviy olami o‘zini aql-zakovat, tafakkur, iroda va o‘zaro munosabatlar orqali namoyon qiladi” [4. Б. 77].

Bugungi kunda badiiy matnga pragmalingvistik, psixolingvistik yondashuv takomillashib bormoqda. Har bir nutq egasi alohida shaxs ekanligining inobatga olinishi, har bir holatni umumiy mazmun va qurshov asosida tahlil qilishga intilish badiiy matnning tushunilishini yanada osonlashtiradi. Zero, adabiy asardagi har bir so‘z, har bir

jumla muallif maqsadi yo‘lidagi quroldir. Shunga ko‘ra, metafora ham eng sermahsul tasvir vositasi sifatida badiiy matnda muhim o‘rin tutadi.

Metafora yunoncha “*metaphora”* (ko‘chim) so‘zidan olingan. “Nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘zlar va iboralarning ko‘chma ma’noda ishlatilishi metafora deyiladi” [5. Б. 362]. O‘zbek tilidagi metaforalarni sistem tadqiq etgan olima G.Qobuljonova dunyo tilshunoslari fikrlarini inobatga olgan holda, metaforalarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni taklif etadi: *ekspressiv metaforalar* va *noekspressiv metaforalar* [6. Б. 41].

Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi metaforalarni tahlil qilish jarayonida ularning baho ifodalash vazifasiga e’tibor qaratishga harakat qildik. Inson fikrlash xususiyatiga ega ekan, u atrofga doimiy ta’sirini, munosabatini bildirib turadi. Muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilari alohida shaxs, ya’ni nutq egasi sifatida o‘z fikr-mulohazalarini ifoda etadi. Bu esa fikrni tasdiqlash, inkor etish shaklida yuzaga chiqadi. Fikr bayon etuvchi (so‘zlovchi yoki yozuvchi) muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his-tuyg‘ulari va kechinmalarini ham bayon qiladi. Shu tariqa yuzaga kelgan vaziyatni o‘zicha baholaydi: ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi. Subyektiv baho ifodalashda asosan subyektning obyektga munosabati nazarda tutiladi. Bahoning darajasi, ijobiy yoki salbiyligi mavjud holat, aytish joizki, psixologik holat e’tiborga olinganda aniq bilinadi. Zero, inson muloqot jarayonida muayyan psixologik holatda bo‘ladi*: xursand, xafa, jahli chiqqan, hayajonlangan, ikkilangan* va hokazo.

A.Pardayev nutqda baho munosabatining ifodalanishi haqida shunday yozadi: “Turli-tuman munosabatlar olami inson ruhiy olamini yuzaga chiqaradi, kechinmalar, munosabatlar xilma-xilligi namoyon bo‘ladi. Munosabat bildirish jarayoni insonning obyektiv olamni baholashi demakdir. Baholash jarayoni esa muloqot jarayonida insonga til birliklaridan munosibini tanlab ishlatish imkoniyatini taqdim etadi. Turli ta’sirlar orqali yuzaga keluvchi hislar va ularni tug‘diruvchi munosabat hamda uning natijasi bo‘lgan baholashning o‘zaro aloqadorligi turli his-tuyg‘ular mohiyatini ochib beruvchi sezish, idrok qilish, kognitivlik kabi falsafiy qarashlarni ifodalaydi. Ruhiy holatlarning ifodalanishida hissiyot va baholashning aloqasi asosiy masalalardan biridir. Insonlar, narsalar va voqealarga nisbatan hislarimiz ularni qanday baholashimizni belgilaydi” [7. Б. 106].

V.Y.Mirkin maqolalaridan birida “psixologik kontekst” mazmuniy jihatdan “implitsit kontekstga” teng kela olishini aytib o‘tadi. Uning ta’rifiga ko‘ra, “prixologik kontekst” suhbatdoshlarning avvalgi birgalikdagi tajribalariga asoslangan o‘zaro ma’lum bilimlardir [8. Б. 91].

Professor M.Hakimov o‘z tadqiqotlarida “prixologik kontekst” tushunchasiga munosabat bildiradi. Xususan, “psixologik kontekst” tushunchasini izohlashda nutq ishtirokchilarining ruhiyati, kayfiyati, xotirasi, dunyoqarashi, bilimi, o‘zini tutishi kabi shaxsga xos xususiyatlar hisobga olinishi zarurligini qayd etadi [9. Б. 80].

Metaforalar tahliliga psixolingvistik yondashish ushbu keng qamrovli tasvir vositasini chuqurroq tahlil etish imkonini beradi. “Kecha va kunduz”da qo‘llangan metaforalarni psixologik kontekst asosida o‘rganish orqali bu tasvir vositasini yana bir aspektda o‘rganishga harakat qilindi. Masalan:

“Bir oz jim qolgach, eski hasratini boshladi:

– Ilohim, qovoqqinasi o‘chsin uning… Yuragim laxta-laxta qon bo‘ldi. Qovog‘idan doim qor yog‘adi, vajohati doim qish, doim izg‘irin… Yo bir maslahatni aytib bo‘ladi, yo – ro‘zg‘or ishini” [10. Б. 23].

Mazkur psixologik kontekst Zebining onasi Qurbonbibining hayoti, ichki dunyosi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Qurvonbibining Razzoq so‘fi bilan o‘tkazgan butun umri azob-uqubatda kechgan. Mazkur xulosaga kelish uchun kontekstdagi “laxta-laxta qon bo‘ldi” birikmasi kifoya qiladi. Bu birikma orqali mushtipar ayolning “butun umr kulmay o‘tgan” eri bilan amallab murosa qilgani, chorasizligi anglashiladi. So‘fining “tund va xo‘mraygan ko‘ngli”, yosh boladek xarxashalari, ayol zotini odam o‘rnida ko‘rmasligi, butun ro‘zg‘or yukini ayoliga tashlab qo‘yganligi sababidan ayolning “yuragi laxta-laxta qon bo‘lgan”. Ammo u – ojiza, shu tufayli so‘fining fe’l-atvoriga ko‘nikishga majbur. Gohida diqqat bo‘lganligidan butun hasratini yolg‘iz hamdardi – qiziga to‘kib soladi. Ayolning ayni holatdagi psixologiyasi uning hayoti, qalbi va kechinmalari xususida axborot beradi. Qurvonbibining ruhiy kechinmalarini yozuvchi *qish, izg‘irin* metaforalari orqali ifodalaydi va shu asosda Razzoq so‘fi xarakterini ochishga harakat qiladi. U so‘fining xarakterini qishga, izg‘iringa o‘xshatadi. “Qish”, “izg‘irin” so‘zlarining leksik ma’nosidan ularning salbiy xarakterga nisbatan ishlatilishi anglashiladi. Razzoq so‘fining “kulmaydigan sovuq yuzi”, “tund qalbi” qishni, izg‘irinni esga soladi. Qishning, izg‘irinning ach-

chiq sovuqlari kishilarni qanchalik azoblasa, so‘fining vajohati ham kishini shunchalik holdan toydiradi. Shundan ayon bo‘ladiki, metafora orqali Qurbonbibining o‘z eriga, shuning barobarida o‘z hayotiga subyektiv bahosi ifoda etiladi.

Sh.Maxmaraimova qayd etganidek, “Metaforik nominatsiyani boshqa nominatsiya turlaridan obraz-ramz bilan assotsiatsiyalanuvchi majmuaviy predikatli tavsiflarning bir vaqtning o‘zida zohiriy va botiniy belgilarning qadryatiy tizimda tutgan o‘rniga ko‘ra ifoda etilishi ajratib turadi. Metaforik nominatsiya predmetda bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan xususiyatlar bilan bir qatorda, ichki sifatiy belgilarni anglash, idrok etish imkonini tug‘diradi” [11. Б. 108]. Darhaqiqat, metaforalar qahramonlarning ruhiy holatini yaqqol anglash imkonini beradi. Masalan: “*Onasining juda og‘ir yuk ostida entikkanini bilganligidan, esini taniganidan beri unga har to‘g‘rida yordam qilishga tirishib, butun ro‘zg‘or ishini o‘zi eplab kelar, onasiga hech bir og‘irini tushurmas edi”* [10. Б. 28]. Ushbu jumladagi “og‘ir yuk” metaforik birikmasi Qurvonbibi ruhiy holatini batafsil tasvirlash uchun ishlatilgan. Yozuvchi Qurvonbibining og‘ir va sertashvish hayoti davomida juda ko‘p azob chekkanini og‘ir yuk ostida entikishga o‘xshatadi. Ayonki, og‘ir yuk ko‘tarib ketayotgan inson entikib, qiynalib harakat qiladi. Ro‘zg‘orning yuki ham shunchalar zalvorliki, u bir kishini juda charchatadi. Qurvonbibi ham bir umr ro‘zg‘orning og‘ir yukini yolg‘iz o‘zi yelkasida ko‘tarib yashadi. Bu o‘rinda “og‘ir yuk” metaforik birikmasi ayol ruhiy holatidagi bir necha jihatlarga ishoradir. Birinchidan, bu bardoshli ayol uchun ro‘zg‘or tashvishlari “og‘ir yuk” edi. Ikkinchidan, Razzoq so‘fiday tund, “qalbi ham, yuzi ham sovuq” odam bilan umr kechirishning o‘zi birinchi yukdanda og‘ir yuk edi. Zebi buni dildan his qilganidan qanday bo‘lmasin onasiga yordam berishga, tashvishlarini sal bo‘lsa ham yengillatishga urinadi. “Yuk” so‘zining mazmunida og‘irlik, qiyinchilik kabi ma’nolar ham yashiringanki, mohir adib qahramoni turmush tarzini batafsilroq yoritish maqsadida undan mahorat bilan foydalana olgan. Bu holatdagi metafora orqali Zebining onasiga, uning hayotiga subyektiv munosabati yuzaga chiqadi. Onasining qiyinchilikda hayot kechirgani, ro‘zg‘or tashvishini yolg‘iz tortgani, qalbining o‘ksik ekani, bardoshli ayolligi – bularning barchasi metafora orqali yuzaga chiqqan.

O‘zbek tilidagi badiiy matnlarni psixolingvistik tahlil qilish muhimligini qayd etgan olima D.Xudayberganova asar personajlari ruhiy holatining ifoda etilishini quyidagicha guruhlaydi:

1. Asar personajining ruhiy holati uning nutqidan anglashiladi.

2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi.

Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi:

a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi;

b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi [12. Б. 94].

“Kecha va kunduz”da metaforalar personajlar nutqida ham, muallif nutqida ham ishlatilib, baho munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Shunday o‘rinlar borki, muallif bir personajning ruhiy holatini ifodalash uchun ketma-ket metaforalarga murojaat qiladi. Quyidagi misollarda muallif nutqi bevosita uning ruhiy holati haqida ma’lumot beradi:

“Nihoyat, mingboshi qo‘lidagi gazetni bir tomonga irg‘itib, o‘rnidan turdi.

– Miryoqub qani deyman senga, Miryoqub?! – deya baqirdi.

Bu yovvoyi darrandaning bo‘kirishi edi!” [10. Б. 98].

Mazkur psixologik kontekstni tahlil qilish uchun metafora asos bo‘la oladi. Bu holatda muallif nutqida “yovvoyi darranda” metaforasi vaziyatga mos tarzda ishlatilgan. Ma’lumki, “Kecha va kunduz” romanida Akbarali mingboshi obrazi yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mingboshi o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan personajdir. Alloh unga katta amalni bergan, lekin aql-farosatdan qisgan. Uning baxtiga Miryoqubdek aqlli, ishbilarmon yordamchisi bor. Miryoqubning qo‘lidan kelmaydigan ishi yo‘q. U har qanday qiyin vaziyatdan qutulish yo‘llarini osongina topadi. Gazetada o‘zi haqidagi tanqidiy maqolani o‘qigach, mingboshi nima qilarini bilmay boshi qotadi. Aksiga olib Miryoqub ham yo‘q. Miryoqub bo‘lganida shunchalik xunob bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan, bir ilojini topgan bo‘lardi. Uning daragi chiqmaganidan keyin mingboshining ruhiyatida alamzadalik boshlanadi: u alamdan baqira boshlaydi. Xuddi shu holatni yozuvchi “yovvoyi darrandaning bo‘kirishiga” o‘xshatadi. Yovvoyi hayvon g‘azablanganda qanchalik bo‘kirishi hammaga ayon. Akbarali mingboshi ham hozir jahl otiga mingan. “Yovvoyi darrandaning bo‘kirishi” birikmasining qo‘llanishi kitobxonga vaziyatni yaqqolroq tasavvur qilishga yordam beradi.

Asarda yuqoridagi voqealar davom etar ekan, Cho‘lpon mingboshi xarakteriga mos yana bir metaforadan foydalanadi. Bu esa ayni psixologik kontekstdagi o‘ziga xos qarama-qarshilikni yu-

zaga chiqaradi va holatni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. E’tibor bering:

“Mingboshi biroz jim qolgach:

– Ishqilib, bir chora topmasang bo‘lmaydi, – dedi.

Faqat bu keyingi jumla quturgan darrandaning emas, suvga pishilgan mushukning og‘zidan chiqmoqda edi...” [10. Б. 99].

Avvalgi psixologik kontekstda mingboshiga nisbatan “yovvoyi darranda” metaforasi ishlatilgan bo‘lsa, keyingi holatda (yuz bergan voqeadan hech qancha muddat o‘tmay) mingboshi “suvga pishilgan mushuk”ka o‘xshatilyapti. Ikki psixologik vaziyat va ikki xil metafora. Vaziyatlar o‘rtasidagi vaqt esa katta emas. Ayni bir personajga nisbatan bu qarama-qarshi metaforalarning ishlatilishi (“yovvoyi darranda” – “suvga pishilgan mushuk”) mingboshi ruhiy holatii bilan bog‘lanadi: dastlab mingboshi gazeta voqeasidan darg‘azab edi, keyin o‘ziga keldi. Chunki Miryoqub yetib kelib, mingboshiga vaziyatni tushuntiradi, achchiqlanishiga hojat yo‘qligini aytib, uni tinchlantiradi. Miryoqubning xotirjamligi mingboshiga ham yuqib, asta-sekin o‘ziga keladi. Miryoqub haqiqatni tushuntirib, mingboshining kamchiliklarini ko‘rsatib berganidan so‘ng “yovvoyi darranda”dan “suvga pishilgan mushuk”ka aylanadi. Bu esa Akbarali mingboshi ruhiyatida ayni damda sodir bo‘lgan g‘alayonlarni, o‘zgarishlarni kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqolroq namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Har ikki holatda ham muallif nutqida ishlatilgan metaforalar mingboshi ruhiyatini chuqur ochib berishga xizmat qilgan.

Romanda personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida berilishini ko‘plab kuzatish mumkin. Bunday psixologik kontekstda ham metaforalardan ruhiy holat ifodalovchisi sifatida keng foydalaniladi. Masalan: “*Burungiday onasining bir so‘zini qaytarmas, nima desa, og‘zidan chiqqan hamon bajarardi. Esi-hushi o‘zida bo‘lmagan bu jonsiz suratning yog‘ochday qotib qolgan qo‘llari va barmoqlari ila ro‘zg‘or ishlarini yana burungiday puxta bajarishlari onaning qurigan ko‘zlarini ham yana yosh bilan to‘ldirib yuborardi”* [10. Б. 111].

Mazkur psixologik kontekst muallif nutqi sanaladi. Unda asar qahramonlaridan Zebining to‘ydan oldingi holati aks ettirilgan. Muallif hikoya usuli orqali qizning qalb kechinmalarini ifodalagan. Personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash uchun uning ruhiy holatiga ishora qiluvchi so‘z va birikmalar ishlatilgan: *so‘z qaytarmas, og‘zidan chiqqanini bajarar, ro‘zg‘or ishlarini bajarar edi*. Mazkur holatga, sirtdan qaraganda, qizning ruhiyatida o‘zgarish yo‘qdek. Biroq qizdagi bu xotirjamlik ortida katta ruhiy zo‘riqish borligini voqealar rivojidan xabardor sinchkov kitobxon yaxshi anglaydi. Sintaktik jihatdan hamma birliklar anglatadigan ma’no ijobiy, biroq matnda holatning salbiy ekaniga ishora qiluvchi birliklar borki (*es-hushi o‘zida bo‘lmagan*), bu yuqoridagi birliklar ostidagi haqiqiy mazmunni yuzaga chiqaradi. Mingboshiga to‘rtinchi xotin bo‘lib uzatilishini eshitgandan buyon sho‘rlik qiz qattiq qayg‘uga cho‘mdi: ko‘z yoshlari sira tinmadi. Qalbida asrab yurgan, faqat o‘zigagina ayon bo‘lgan shirin orzularining qora yerga ko‘milishi uni iztirobga soldi. Ammo kun o‘tishi bilan Zebi ham barcha chorasiz kishilardek taqdirning bu achchiq nihoyasiga ko‘nika boshladi. “*O‘zlari kelib, o‘zlari quyulayotgan*” ko‘z yoshlari ham astasekin quridi. Yozuvchi tomonidan ayni holatga mos “*jonsiz surat”* metaforasining ishlatilishi matn ostidagi yashirin mazmunni yoritishga xizmat qilgan. *Surat* leksemasi jonsiz predmetni anglatadi. *Jonsiz* sifatlashining qo‘shib ishlatilishi esa hamma narsaga ko‘nikkandek ko‘ringan qizning es-hushi o‘zida emasligiga ishora qiladi. “Jonsiz surat” metaforasi Zebining achinarli ahvolini yaqqol tasvirlab beradi. Hamma ishlarni burungiday bajarayotganiga qaramay, “jonsiz surat” metaforik birikmasi personajning qattiq qayg‘uga botgan holatini ifodalaydi. Mazkur vaziyatdagi qarama-qarshilik ostida qizning haqiqiy ruhiyati ko‘rsatiladi: qiz ro‘zg‘or ishlarini burungiday bajaryapti – bu holat “onaning qurigan ko‘z yoshlarini ham yana yosh bilan to‘lg‘azib yuborardi”.

Anglashiladiki, ushbu parchada qo‘llanilgan “jonsiz surat” metaforasi yuqoridagi vaziyatda Zebining ruhiy holatiga juda ham mos kelgan. Jonsiz surat qalbsiz, his-tuyg‘usiz bir tasvir, xolos. Boshidan kechgan voqealar Zebining qalbini ham, his-tuyg‘ularini ham o‘ldirdi. Qiz bechoraning faqat jismi qoldi. Shunday ekan, ushbu holatda Zebining jonsiz suratdan nima farqi bor? Yozuvchi mana shu mantiqiy asoslarga tayangan holda metaforadan ruhiyatni ochib beruvchi vosita sifatida foydalangan.

Badiiy matnda nutqning turli ko‘rinishlaridan muallif o‘zining badiiy niyati yo‘lida unumli foydalanadi. Ma’lumki, nutqning dialogik va monologik ko‘rinishlari mavjud. Monologik nutq muloqot shakllaridan biri bo‘lib, badiiy matnda ruhiy holatlarning yorqin ifodalovchi vazifasini ham bajaradi. Fransuz tilshunosi E.Benvenist monolog haqida fikr yuritib, uni shunday ta’riflaydi: “Monolog bu – “ichki nutq”qa o‘tgan, so‘zlayotgan men bilan tinglayotgan menning dialogidan boshqa narsa emas” [14. Б. 65]. O‘zbek tilshunosligida monologga bir

qator ta'riflar berilgan. Shulardan birida monolog quyidagicha ta'riflanadi: "Monolog (yun. monos – bir+logos – so'z, nutq). So'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq" [13. Б. 65]. Tilshunos olim A.Hazratqulov "O'zbek dialogik nutqi sintaksisi" nomli monografiyasida monologik nutqqa ham to'xtalib, uning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etadi: "1. Nutq bir tomonlama xarakterga ega bo'ladi va unda luqma ishtirok etmaydi. 2. Monologik nutqda fikrni oldindan o'ylash va tayyorlash sharoiti mavjud bo'ladi. 3. Hajmi keng, nutqiy qator tugallangan va ular o'rtasida shartli bog'liqlik mavjud bo'ladi" [15. Б. 25].

"Kecha va kunduz" romanida ruhiy holat ifodalovchi vosita sifatida monologik nutq keng qo'llanilgan. Har qanday monologik nutqda personajning kayfiyati, vaziyati aks etgan bo'ladi. Unda metaforalarning ishlatilishi psixologik holatni to'laroq anglash imkonini beradi. Masalan: "*Bu nima gap? Tushimi, o'ngimi? Yo ishongan tog'i ham ag'darilmoqchimi? Yo, Miryoqub ham boshqa yoqadan bosh ko'tarmoqchimi?"* [10. Б. 95].

Mazkur monolik nutq roman qahramoni Akbarali mingboshiga tegishli bo'lib, personajning vaziyat natijasidagi ruhiy holatini ko'rsatib beradi: xavotir, ikkilanish, qo'rquv – bularning barchasi ayni paytdagi Akbarali mingboshining qalbida kechayotgan kechinmalar. Ushbu kechinmalarni ifoda etish jarayonida Cho'lpon "ishongan tog'" metaforasini qo'llagan. Bu metafora orqali Miryoqubga ishora qilingani keyingi jumladan ham sezilib turibdi. O'quvchiga ma'lumki, Miryoqub mingboshining yaqin yordamchisi, hech bir ish usiz amalga oshmaydi. Miryoqubning mingboshi faoliyatidagi o'rni shunchalar muhimki, buni yuqoridagi jumladan ham sezib olish qiyin emas. Shuning uchun yozuvchi Miryoqubni mingboshining "ishongan tog'i" deb atayapti. Bu yerdagi o'xshatishga asos bo'lgan narsa shundan iboratki, *tog'* turli xil shamol-bo'ronlarning yo'lini to'sib turadi. Ikkinchidan, "tog'" so'zining bir semasida "mustahkamlik" ma'nosi yotadi. Xuddi shuningdek, Miryoqub Akbarali mingboshini har xil balolardan, qiyinchiliklardan saqlaydi. U ham xuddi tog'dek mustahkam, ishonchli hamkor. Miryoqub uzoqni ko'zlab ish yuritadi. Uning fikrlari, ishlari shunchalik pishiq-puxtaki, unga bemalol "tog'"ga suyangandek suyansa bo'laveradi. Mana shularni e'tiborga olib, yozuvchi "ishongan tog'" metaforasini vaziyatga mos holda qo'llaydi va u orqali Miryoqubning mingboshi oldidagi vazifalari qanchalik ahamiyatli ekanini yana bir karra ta'kidlaydi. Shu bilan birga, mingboshining qalbida turli shubha-gumonlar aylanib, unga tinchlik bermayotgani yaqqol anglashilyapti.

Shuni qayd etish joizki, "tog'" leksemasi romanda bir necha o'rinlarda ko'chma ma'noda ishlatilgan. Yozuvchining mahorati samarasi sifatida bu leksema har xil psixologik kontekstda turli ma'nolarni anglatib kelgan. O'zbek muloqot nutqida "tog'" leksemasi metafora usuli bilan ko'chgan ma'noda keng qo'llanishi ayon. Bu holat romanda ham kuzatiladi. Masalan: "*Shu topda Zebining yuragidan og'ir bir tog' ko'chgan edi!"* [10. Б. 89]. Mazkur gapda "tog'" metafora hisoblanib, "yuk" ma'nosida ishlatilgan. Zebining qalbidagi shubhalarning og'ir yuk ekani metafora orqali bayon etilgan.

Quyidagi misolda "tog'" leksemasining yana bir semasi asosida ko'chma ma'noda qo'llanganiga guvoh bo'lamiz: "*Bu tog'dan o'tish kerak edi, holbuki bu tog' – munaqa yosh bolalar o'ta oladigan tog'lardan emas edi"* [10. Б. 33].

Bu holatda esa "tog'" metaforasi orqali Razzoq so'fi nazarda tutilgan. So'fi yoshlarning mayllariga qarshi turishi tog'ga oxshatilishi ortida bu odamning o'ta qattiqqo'lligi haqidagi xabar yotadi. Demak, bu o'rinda "tog'" leksemasi to'siq ma'nosida shaxsga ishora qilgan.

Ko'rinadiki, badiiy matn har bir til hodisasining butun mohiyatini ochib bera oladigan ulkan maydondir. Metaforalar keng qo'llanuvchi tasvir vositalaridan biri bo'lib, iste'dodli yozuvchilar ular vositasida badiiy tilning go'zal namunalarini yaratadilar. Metaforalar nafaqat tasviriylikni oshiradi, balki nutqiy vaziyatlarda personajlar ruhiy holatini ko'rsatib berishda ham muhim vosita sanaladi. Ular yordamida o'quvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. *Йўлдошев М.* Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 120 б.

2. *Маҳмудов Н*. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари, 2006. – № 2. – Б. 48–53.

3. *Йўлдошев М.* Бадиий матннинг лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – 160 б.
4. *Алпонова Ш.* Ўзбек тилида руҳий ҳолатнинг акс этиши. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – 160 б.
5. *Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ.* Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 362 б.
6. *Қобулжонова Г.* Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 41 б.
7. *Пардаев А.* Нутқ инновацияси ва уларда баҳо муносабатининг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 1. – Б. 105–108.
8. *Мыркин Я.* Текст, контекст, подтекст // Вопросы языкознания, 1976. – № 2. – С. 76–93.
9. *Ҳакимов М.* Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.
10. *Чўлпон.* Яна олдим созимни. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 1991. – 211 б.
11. *Махмараимова Ш.* Ўзбек тилида метафоранинг номинатив функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 3. – Б. 105–110.
12. *Худойберганова Д.* Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2015. – 102 б.
13. *Ҳожиев А.* Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.
14. *Маҳмудов Н.М.* Эллипсис в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 65 с.
15. *Ҳазратқулов А.* Ўзбек диалогик нутқи синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1991. – 121 б.

THE ROLE OF METAPHOR IN THE PSYCHOLOGICAL CONTEXT
(Based on Chulpan's novel “Night and Day”)

D.G.Mamadalieva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 7(67). 84-90.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: artistic text, metaphor, psychological context, expressive metaphors, non-expressive metaphors, monologue, dialogue, author's speech, character's speech.

The article talks about the psychological context and its manifestations. The specific features of the artistic text, the aesthetic function of the language revealed through the artistic text are shown. Mental situations in the literary text and the role of metaphors in it are analyzed.

Through the literary text, the author has a specific goal in mind, and events are developed towards this goal. The artistic text differs from other types of texts in that it is a field where the aesthetic function of language is clearly manifested. That's why writers try hard to show the full potential of the language while writing a work. In this sense, the aesthetic function of language is promoted to the main place in artistic speech.

Today, the pragmalinguistic, psycholinguistic approach to the artistic text is improving. Taking into account that each speaker is a separate person, and trying to analyze each situation based on the general content and context, makes it easier to understand the artistic text. After all, every word, every sentence in a literary work is a weapon on the way to the author's goal.

Metaphor, as the most productive image tool, occupies an important place in the language of artistic texts.

In the process of analyzing metaphors in the novel "Kecha va kunduz" by Abdulhamid Chulpan, we tried to focus on their function of expressing value. As a person has the characteristic of thinking, he shows his constant influence and attitude to the environment. During the dialogue, the participants of the dialogue express their opinions as a separate person, that is, as the owner of the

speech. This appears in the form of confirmation and denial of the opinion. As an active participant in the communication process, the speaker or writer who expresses his opinion also expresses his feelings and experiences.

A psycholinguistic approach to the analysis of metaphors allows for a deeper analysis of this comprehensive image tool. Based on the study of the metaphors used in "Kecha va kunduz", metaphors are used both in the speech of the characters and in the speech " based on the psychological context, an attempt was made to study this image tool in another aspect.

In "Kecha va kunduz", metaphors are used both in the speech of the characters and in the speech of the author to express the attitude of value. There are places where the author uses a series of metaphors to express the mental state of one character.

It seems that the artistic text is a huge space that can reveal the whole essence of every linguistic phenomenon. Metaphors are one of the widely used image tools, and talented writers use them to create beautiful examples of artistic language. Metaphors not only increase imagery, but are also an important tool for showing the mental state of characters in speech situations. With their help, the reader will have the opportunity to get acquainted with the spiritual experiences of the heroes.

References:

1. Yoldashev, M. (2007). *Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari* [Basics of literary text and its linguopoetic analysis]. Tashkent: Fan.

2. Mahmudov, N. (2006). Nutq madaniyati va tilning estetik vazifasi [Speech culture and the aesthetic function of language]. *Filologiya masalalari*. 2. Pp. 48-53.

3. Yoldoshev, M. (2008). *Badiiy matnning lingvopoetikasi* [Linguistics of literary text]. Tashkent: Fan.

4. Alponova Sh. (2019). *O‘zbek tilida ruhiy holatning aks etishi* [Reflection of the state of mind in the Uzbek language]. Tashkent: Akademnashr.

5. Shomaqsudov, A., Rasulov, I., Qo‘ng‘urov, R., Rustamov, H. (1983). *O‘zbek tili stilistikasi* [Stylistics of the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

6. Qobuljonova, G. (2000). *Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini* [Systematic Linguistic Interpretation of Metaphor]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

7. Pardayev, A. (2009). Nutq innovatsiyasi va ularda baho munosabatining ifodalanishi [Innovation of speech and expression of value attitude in them]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. 1. Pp. 105-108.

8. Myrkin, Y. (1976). Tekst, kontekst, podtekst [Text, context, subtext]. *Voprosy yazykoznaniya*. 2. Pp. 76-93.

9. Hakimov, M. (2013). *O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari* [Basics of Uzbek pragmalinguistics]. Tashkent: Akademnashr.

10. Chulpan. (1991). *Yana oldim sozimni* [I got my tune again]. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam.

11. Mahmaraimova, Sh. (2009). O‘zbek tilida metaforaning nominativ funksiyasi [The nominative function of metaphor in the Uzbek language]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. 3. Pp. 105-110.

12. Xudoyberganova, D.S. (2015). *O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropostentik talqini* [Anthroposthetic interpretation of artistic texts in the Uzbek language]. Abstract of Dissertation for the degree of Doctor of Philological Sciences. Tashkent.

13. Hojiyev, A. (2002). *Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of linguistic terms]. Tashkent: ‘Uzbekistan national encyclopedia’ State scientific publishing house.

14. Mahmudov, N.M. (1977). *Ellipsis v uzbekskom yazyke* [Ellipsis in the Uzbek language]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

15. Hazratqulov, A. (1991). O‘zbek dialogik nutqi sintaksisi [Syntax of Uzbek dialogic speech]. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

MAMADALIYEVA Dilfuza G‘aniyevna – Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi. E-mail: matyaqubova@mail.ru